



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Rizayeva .Sh.M.<sup>1</sup>, Rizayeva N.Q.<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Sh.M Jizzax viloyat Xalq ta'limi Xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchisi.

<sup>2</sup>Zarbdor tumani XTBga qarashli 1- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.

### Liderlik haqida tushuncha, turlari va liderlik qobiliyatini shakllantirish.

#### Annotasiya

Maqolada liderlikning mazmun mohiyati ochib berilgan, inson bechoralik hissiga berilib ketib, atrofidagi voqelik nazoratini qo'ldan beradi va uning shaxsi parchalanib ketadi. Maqolada, bunday noaniqlik hukm surgan jamiyatda qanday qilib, o'z qadriyatlarini saqlab qolish, belgilagan maqsadlarini amalga oshirishdagi zarur resurslarni mustaqil ravishda bajarish tavsiyalari belgilangan. Insoniy pozitsiyasi, uning o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatini o'sishi - avtoritar va buyruqbozlik xususiyati darajasiga qarshi qo'yilganligi yaqqol ko'rsatilgan.

#### Аннотация

В статье раскрывается содержательная сущность лидерства, человек, поддавшись чувству беспомощности, теряет контроль над окружающей действительностью, а его личность распадается. В статье изложены рекомендации о том, как в обществе, где царит такая неопределенность, сохранить свои ценности, самостоятельно реализовать необходимые ресурсы в реализации поставленных целей. Очевидно, что человеческая позиция, рост ее способности к саморазвитию - ограничение образовательной территории и свободы воспитанника-противопоставляются степени авторитарного и командного характера в деятельности педагога.

#### Annotation

*The essence of the content of leadership is revealed in the article, a person goes to a sense of poverty, dispels the control of the surrounding reality, and his personality disintegrates. The article sets out the recommendations on how to independently carry out the necessary resources in the implementation of the goals set, how to maintain their values in a society in which such uncertainty reigns. It is clearly shown that the human position, the growth of its self - development abilities-the limitation of the educational area and freedom of the student is opposed to the level of authoritarian and commanding character in pedagogical activity.*

*Kalit soʻzlar: Lider, rahbar, qobiliyat, avtoritar rahbar, demokratik rahbar, liberal rahbar.*

*Ключевые слова: лидер, лидер, способность, авторитарный лидер, демократический лидер, либеральный лидер.*

*Keywords: Leader, Leader, ability, authoritarian leader, Democratic leader, liberal leader.*

Lidersiz hech bir guruh faoliyat koʻrsata olmaydi. Liderni maʼlum maqsad uchun kishilar guruhini birlashtira oladigan shaxs sifatida qarash mumkin. Liderning asosiy vazifasi insonlarni oʻzining orqasidan ergashtirgan holda yagona maqsad doirasidagi vazifalarni yechish uchun guruh aʼzolari oʻrtasida samarali munosabatlarni oʻrnatishdir. Yaʼni lider- insonlardan iborat tizimni tartibga soluvchi element hisoblanadi. Liderlikka vaqtincha erishish ham mumkin, ammo haqiqiy liderni keyingi olgʻa qadamlar bilan oʻzgartirib boʻlmas sodiqlik ajratib turadi. Bizga maʼlumki, har bir inson katta moʻjiza, uning biz koʻrmagan bilmagan va albatta ochilmagan qirralari bor yoki boʻlishi mumkin. Liderlik - kuch ishlatishga asoslanmagan hokimiyat hisoblanadi. Liderlar qayerdan vujudga kelishini hech kim bilmaydi, lekin tashkilotlarda, maktablarda liderlar yuzaga kelishi bilan ishlar yurishib ketadi. Liderlik bu alohida shaxs, shu bilan birga guruhga taʼsir koʻrsata olish qobiliyati boʻlib, barchaning harakatlarini tashkilot yoki sinf maqsadlariga erishishga yoʻnaltiradi, inglizcha lider “rahbar; “qoʻmondan»; “yoʻlboshchi; “yetakchi» deb tarjima qilinadi. Yetakchilik va boshqaruv haqida soʻz ketganda, buyuk tarixiy shaxs, oʻrta asrning yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, kuchli va markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi Sohibqiron Amir Temur xususida alohida toʻxtalib oʻtish joiz. U odob- axloq, iymon- eʼtiqod taʼlim-tarbiya sohasida yuksaklikka erishgan buyuk siymolardan biridir. Jahonga mashhur boʻlgan “Temur tuzuklari” da uning ibratli, hayotiy pand- nasihatlar va purmaʼno oʻgitlarining teranligi, taʼsirchanligi yaqqol namoyon boʻladi. Bu asarni davlar boshqaruvida, yoshlarda liderlikka xos xislatlarni va boshqaruv mahoratini shakllantirishda beqiyos xazina- qoʻllanma, deya olamiz. Maʼlum muammoni yechishda guruh liderni ilgari suradi. “Lider” tushunchasi “maqsad” tushunchasi bilangina ahamiyat kasb etadi. Lekin bu maqsadga oʻzining harakatlari bilangina erishish liderlikka xos emas. Liderlikning tarkibiy qismlaridan biri liderga ergashuvchilarining mavjud boʻlishidir.

**Tashkilotchilik qobiliyati** - bu birinchidan, jamoani uyushtira olish, va jamoani jipslashtira olish: ikkinchidan; oʻzini shaxsiy ishini toʻgʻri tashkil qila olish qobiliyatidir. Oʻz ishini tashkil qila bilish deganda, uning oʻz ishini toʻgʻri



rejalashtirib, uni nazorat qila olish nazarda tutiladi. Jamoa faoliyatini va o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati rahbar uchun muxim bo'lgan talablardan biridir.

Rahbar mavqeyi sifatida shaxsda egalik xususiyatini shakllantiradi. Boshqarish bevosita jamoaga qaratilgan bo'lib, uning psixologik natijasi o'zlikka nisbatan xurmat, o'zlikni anglash, qadrlash kabilarni vujudga keltiradi.

Har bir lider yoki boshliq o'zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi xar bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etishidadir.

**Boshqarish faoliyatida liderlik, lider - rahbar** sotsial psixologik fenomeniga katta e'tibor beriladi. Liderlik fenomenini tahlil qilishdan oldin avtoritet tushunchasini ko'rib chiqish lozim. Avtoritet (lotincha - xokimiyat, ta'sir ko'rsatish) - sotsial psixologiyada -odam, ijtimoiy guruh, jamoat tashkilotining boshqalarga ta'siri, boshqa odamlar nazaridagi mavqeini anglatadi. Shaxs, guruh yoki tashkilotning avtoriteti qonuniy, rasmiy yoki norasmiy, ularning norasmiy munosabatlar tizimidagi holatiga bog'liq bo'lishi mumkin. Birinchi holatda avtoritet sub'yektning ijtimoiy roliga bog'liq bo'ladi, ikkinchi holatda unga atrofdagi odamlarning munosabatiga bog'liq bo'ladi. Aynan ana shu rol va munosabatlardan rasmiy va norasmiy liderlik tushunchasi kelib chiqadi.

Liderlik uslubi - lider yoki rahbar tomonidan unga buysunuvchi yoki unga qaram bo'lgan odamlarga ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaniladigan usul va metodlar to'plamidan iboratdir. Liderlik uslubi Kurt Levin tomonidan taklif qilingan bo'lib u va shogirdlari tomonidan uchta uslub ajratilgan: **avtoritar, demokratik va liberal uslublar.**

**Avtoritar rahbar** - Avtoritar rahbarda xar bir jamoa a'zolarining qobiliyati, ishga munosabatlari, mavqelariga ko'ra tutgan o'rinlari haqida tasavvur borki, shunga ko'ra u xar bir xodimning ish xarakterlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qo'ygan, unda xar qanday cheklanishlar uning ochiq g'azabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Yana bunday jamoalardan xokimiyat - markazlashtirilgan jamoa rahbari ushbu markazning yakka xokimi - shuning uchun ham bu yerda «mening odamlarim», «mening ishim», «mening fikrim bo'yicha» qabiladagi iboralar tez-tez ishlatib turiladi.

**Demokratik rahbar** - aksincha, bo'ysunuvchilarga mustaqillik, erk berish tarafdori. Ishni ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan xolda taqsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy moyilliklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriq, odatda taklif ma'nosida beriladi. Nutq oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uni-lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra, ishga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan xolda amalga oshiriladi. Boshliq yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarini jamoatchilik oldida bo'yniga oladi va olishdan qo'rqmaydi, chunki undagi mas'uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlari a'zolari bilan muloqot paytida, balki xodimlar bilan muloqotda ham sezilib turadi va qo'yilgan topshiriq yuzasidan mas'uliyatni boshqalarga ham bo'lib berishni yaxshi ko'radi.

**Liberal rahbar** - bu rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda ta'qiqlash, po'pisa bo'lmaydi,



uning o'rniga ko'pincha, ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilangina cheklanadi xolos. Jamoada hamkorlik yo'q. Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xushmuomila bo'lib, odob, axloq normalarini buzmaslikka xarakat qiladi, lekin xech qachon ular bilan tortishmaydilar. Olimlarning fikricha, bunday rahbar ishi olib borgan jamoada barcha ko'rsatkichlar doimo orqada, qo'nim ham yo'q. Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik, tashabbuskorlik sifatleri. Chunki ayrim xollarda xato qilsa ham rahbar original fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, xar bir ko'rsatilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur.

#### **Muammolarni hal qilish malakalarning yetishmasligi.**

Ishlab – chiqarishda har xil xususiyatli muammolar tinimsiz ravishda namoyon bo'lib turadi. Notanish yangi nostandart yondashishni taqozo etuvchi yangicha yechimni talab qiluvchi ijodiylikka asoslanuvchi vositalar bilan qurollanish rahbarning bosh vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. -T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2013. 497-b.
2. Chemers M. (1997) An integrative theory of leadership. Lawrence Erlbaum Associates, Publishers. ISBN 978-0-8058-2679-1
3. K.Turayev Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. -T. 2020. 14-b.
4. Икрамов Р.А., Хожиев Р.Б. (2020). Воспитание гармонично развитого поколения является приоритетом государственной молодежной политики. Вестник науки и образования. № 14 (92). Часть 1. С. 88-90.
5. Ziyonet.uz.